

**FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA O'QUVCHILARNING  
NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV  
TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI**

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Mahorat Markazi

**Uteuliyeva Mexriban Ibragimovna**

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotcent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fanlararo aloqadorlik asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv topshiriqlaridan foydalanishning pedagogik-didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif til tashuvchisining shakllanishida lisoniy qobiliyat, psixofiziologik jarayonlar va ma'naviy-etik omillarning o'rnini tizimli tahlil qiladi. Shuningdek, metodika fanida "mashq", "savol" va "topshiriq" tushunchalarining differensial xususiyatlari aniqlashtirilib, darsliklardagi topshiriqlarning pragmatik va kognitiv xarakterga ega bo'lishi o'quvchilarning muloqot madaniyatini yuksaltirishning bosh omili ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fanlararo aloqadorlik, nutqiy kompetensiya, til tashuvchisi, o'quv topshirig'i, kognitiv-pragmatik ta'lim, mashq, muloqot modellari, didaktik birlik.

Til tashuvchisining shakllanishida lisoniy qobiliyat va psixologik shart-sharoitlar fundamental ahamiyatga ega. Nutqiy rivojlanish jarayoni faqat maktab ta'limi bilan cheklanib qolmay, insonning butun ongli hayoti davomida takomillashib boruvchi dinamik hodisadir.

Ona tili ta’limida nutqiy ko’nikmalarning shakllanishi bevosita intellektual va ma’naviy rivojlanish omillari bilan bog‘liq. Buni quyidagi tizimli jarayonlar majmuasida ko‘rish mumkin:

- Psixofiziologik jarayonlar: xotira (vizual, auditorial), fikrlash (mavhum, majoziy), kuzatuvchanlik va ijodiy tasavvur.
- Ma’naviy-etik rivojlanish: shaxsning axloqiy me’yorlari va muloqot madaniyatini o‘zlashtirganlik darajasi.

Ushbu jarayon didaktik va psixologik tabiatga ega bo‘lib, bolalik davridanoq til qonuniyatlarini anglash va muloqot modellarini shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, M.Nepp bolaning 2–3 yoshidayoq ona tili grammatikasini anglamagan holda, ongosti sezgilari va ijtimoiy tajriba asosida egallashini ta’kidlaydi. Natijada shaxs ongida nutqiy faoliyat bilan parallel ravishda ichki harakatlar rejasi va muayyan vaziyatlar uchun kommunikativ modellar tizimi tarkib topadi.

L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev va S.L.Rubinshteyn kabi olimlarning tadqiqotlari til tashuvchisini shakllantirish muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. I.Ya.Zimnyaya “ona tilining kommunikativ rivojlanishi”ni ko‘p qirrali va murakkab tizimli hodisa sifatida talqin etadi [137]:

- lug‘at miqdori (leksik minimum);
- nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darajasi;
- fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;

- matni o‘qish sur‘ati darajasi;
- yozma nutq ko‘nikmalarining shakllanish darajasi;
- kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi;
- umumiy dunyoqarash darajasi.

Muloqot qilish uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- til kompetensiyasi;
- nutq kompetensiyasi;
- pragmatik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya.

Mazkur talablarni amalga oshirish, kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, til ta‘limida maxsus o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta‘limning afzalliklarini o‘rganib chiqishni talab etadi.

Psixologik va didaktik nuqtayi nazardan “topshiriq” tushunchasi o‘quv jarayonining markaziy birligi hisoblanadi. Didaktik nazariyada ushbu termin “tarbiyaviy topshiriq”, “intellektual muammo”, “mashq” va “mustaqil ish” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqlikda qo‘llaniladi. Xususan, A.N.Leontyev topshiriqni “muayyan shartlarga asoslanib qo‘yilgan maqsad” deb ta’rifladi, uning o‘ziga xosligini ochib berishda “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat” kategoriyalariga tayanadi.

Y.A.Ponomaryev topshiriqlar nazariyasida subyekt va obyektning o‘zaro ta’sirini tadqiq etgan bo‘lsa, metodist olim O.Roziqov o‘quv topshirig‘ini “o‘quv

maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv materialining o'zgartirilgan shakli" [106] sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, o'quv topshiriqlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- Strukturalash va tarkibni qayta ko'rib chiqish imkoniyati;
- O'quv jarayoni bosqichlarining mutanosibligi;
- Ochiq tizimlilik va bir-birini to'ldirish tamoyili;
- O'qitish va o'rganish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganlik.

Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, 1930–1940-yillardagi darsliklarda mashq va topshiriqlar tizimi deyarli kuzatilmaydi. Keyinchalik Y.Abdullayev va A.Barxudarov darsliklarida mashq namunalari, N.Mahmudov bosh muallifligidagi darsliklarda esa ilk bor tizimli “topshiriqlar” joriy etila boshlandi.

Metodika fanida “mashq” va “topshiriq” tushunchalarini farqlash masalasi ham muhim o'rin tutadi. M.Saidov metodist-olim A.G'ulomovning “mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usulidir” degan fikriga tayanib, topshiriq mashqning bir bo'lagi ekanligini, u asosan mashqning shartida o'z ifodasini topishini ta'kidlaydi [82].

Bizning yondashuvimizga ko'ra, topshiriq – mashq va savolni o'z ichiga oluvchi, o'quvchini bilim olishga yo'naltiruvchi va baholash komponentini qamrab oluvchi asosiy didaktik birlikdir. Amaldagi ona tili darsliklarida ko'pincha mashq, savol va topshiriq terminlari aralash holda qo'llaniladi. Vaholanki, mashq faqat ko'nikma va malaka hosil qilishga, savol fikrlashga undashga, topshiriq esa bilimni o'zlashtirish va faoliyatni tashkil etishga xizmat qilishi lozim.

N.Mahmudov ta'kidlaganidek: “Tilni o'zlashtirishda til qurilishini bilish shart... Ammo ayni qurilish birliklaridan nutqda bevosita qanday qo'llash malakasi

shakllanmagan bo'lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul" [85]. Binobarin, darsliklardagi o'quv topshiriqlarining pragmatik xarakterga ega bo'lishi o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning bosh omilidir.

Ta'limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – ona tili ta'limi mazmunini, o'qitish metodikaning asosini tashkil etadi.